



AGRAR SOHADA KOOPERATSIYA MUNOSABATLARINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM YO'NALISHLARI

Otaqulova Nilufar Barxramovna

mustaqil izlanuvchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17199090>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20- sentabr 2025 yil
Ma'qullandi: 23- sentabr 2025 yil
Nashr qilindi: 25- sentabr 2025 yil

KEYWORDS

kooperatsiya, fermer xo'jaligi, dehqon xo'jaligi, agrar soha, modernizatsiya, ta'sischiilik, kooperativlar.

ABSTRACT

Ushbu maqolada agrar sohasida iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish, kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirishning muhim yo'nalishlari va muammolari, ularning yechimlari ko'rib chiqilgan.

Mamlakat qishloq xo'jaligi iqtisodiyotini modernizatsiyalash va islohatlar ko'lamini kengaytirish hamda izchil amalga oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan tashkiliy, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va huquqiy islohatlar qishloq xo'jaligini obod va farovon etish, o'z yeriga va daromadiga ega bo'lgan mulkdorlar qatlamini shakllantirish hamda ularning sonini ko'paytirish, qishloq aholisining turmush madaniyatini yuksaltirishga yo'naltirilgan.

Qishloq xo'jaligi korxonalarini ishlab chiqarish samaradorligini oshirish masalasi bozor iqtisodiyoti uchun muhim sanaladi. Qishloq xo'jaligi korxonalarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning muhim jixati shundaki, resurs va xarajatlarning har bir birligiga korxonada tobora ko'proq mahsulot ishlab chiqara oladigan va foyda ko'radigan bo'lishi kerak. Shunday aholidagi aholining oziq-ovqat mahsulotlariga, sanoatning esa xom-ashyoga talabini to'laroq qondirish imkonini yaratish mumkin.

Mamlakatimiz aholisi hayotining farovonligi, qishloq xo'jaligining istiqboldagi taraqqiyoti fermer xo'jaliklarining har tomonlama rivojlanishi bilan bog'liq. Zero, xo'jalik yuritishning bu shakli rivojlangan mamlakatlarning uzoq davrli tajribasida o'z samaradorligi, raqobatbardoshligi, bozor kon'yukturasiga tez moslasha olishi kabi xususiyatlarini namoyon eta oladi.

Tadqiqotning dolzarbligi. Mamlakat qishloq xo'jaligi fermer xo'jaligi taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq ekan, ularning rivojlanishiga imkon beradigan barcha masalalarning ilmiy-metodologik asoslarini takomillashtirish va mavjud muammolarni amaliy hal qilish bugungi kunda dolzarblik kasb etadi. Imkoniyati va salohiyati nisbatan past bo'lgan fermer xo'jaliklarini o'z-o'zini zarur texnika, aylanma mablag'lar bilan ta'minlash, kredit qobiliyatiga ega bo'lish, eng asosiysi, o'z xarajatlarini qoplash va foyda ko'rib ishlash, daromadni oshirishning ishonchli asosiga aylana olmasligini bugun ularning amaliyoti ko'rsatmoqda.

Keyingi yillarda mamlakatimizda agrar sohada olib borilgan islohotlar natijasida 260 ming gektar yer maydonlarida yangi dehqon va fermer xo'jaliklari paydo bo'ldi. Ular tomonidan yetishtirilgan mahsulotlarni tashish, saralash, saqlash, qayta ishlash, ichki va tashqi bozorda sotishni yengillashtirish uchun qishloq xo'jaligi kooperativlari va klaster korxonalari o'rtasidagi kooperativ hamkorlik imkoniyatlaridan yanada samarali foydalanish zarurati yuzaga kelmoqda.

Amaldagi qishloq xo'jaligida kooperativ munosabatlarni bevosita tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarning tarqoqligi, turli qonunchilik hujjatlarida mavjud normalarni amaliyotda qo'llash qiyinchiligi sohada kooperativ munosabatlarni tartibga solishning zamonaviy huquqiy asosini yaratish lozimligini ko'rsatmoqda.

Qishloq xo'jaligi korxonalari va agrosanoat majmui korxonalari o'rtasida kooperatsiya tuzilmasining iqtisodiy samaradorligi agrosanoat majmui va uning asosiy tarkibiy qismi bo'lgan qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishini ta'minlash hamda istiqbol rivojlanishi yo'nalishlarini belgilashda xususiy va jamoa manfaatlari uyg'unligiga erishiladi.

Fermer xo'jaliklari uchun kooperatsiya tizimidagi aloqalarning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi shundaki, kooperatsiya tizimida turli yo'nalishdagi xizmatlar ko'rsatish bir joyda mujassamlashgan bo'lib, kooperatsiya a'zosidan ushbu xizmatlardan foydalanish uchun ko'p vaqt talab etilmaydi. Bundan tashqari, xizmatlar uning a'zolari uchun ma'lum chegirmalar asosida amalga oshiriladi.

Qishloq xo'jaligi kooperatsiyasi keng ma'noda ishlab chiqarishni tashkil etishning alohida shakli sifatida mehnatni qo'llashning nafaqat texnik-texnologik shakli, balki tayyor mahsulotni ishlab chiqarish va sotish bo'yicha fermer xo'jaliklarini tashkil etish, shuningdek, bozor sharoitida yanada yirik moliyaviy jihatdan mustaqil xo'jaliklar bilan raqobat kurashidagi xatarlarni cheklash maqsadida ularga servis xizmati ko'rsatishning ijtimoiy va iqtisodiy shakli hamdir.

Zamonaviy xo'jalik yuritishning ustuvor shakllaridan biri bo'lgan yangi, samarali agrar tuzilmani shakllantirish, agrar sektorda amalga oshirilgan iqtisodiy islohatlarni hisobga olgan holda kooperatsiyani rivojlantirish va takomillashtirish O'zbekistonda ham qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni barqarorlashtirish va takomillashtirishning muhim yo'nalishlaridan biri sanaladi.

Butun dunyoda kooperativlar harakati: ixtiyoriy va ochiq a'zolik; demokratik nazorat; kooperativ a'zolarining iqtisodiy manfaatdorligi ustuvorligi; erkin va mustaqil harakatlanish; o'qitish, o'rgatish va axborot bazasini rivojlantirish; kooperativlararo kooperatsiya tuzish; jamiyat haqida qayg'urish kabi tamoyillarga asoslanadi.

Agrosanoat majmuida kooperatsiya va integratsiya jarayonlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan tadbirlarning izchil amalga oshirilayotganligiga qaramasdan, ishlab chiqarish va moliyaviy munosabatlarga kirishuvchi qishloq xo'jaligi va boshqa sanoat hamda qayta ishlash korxonalari o'rtasidagi munosabatlarni zamon talablari darajasida shakllantirish uchun ularni takomillashtirish lozim. Bu esa avvalambor qishloq xo'jaligi va agrosanoat majmuining ishlab chiqarish - moliyaviy o'zaro iqtisodiy munosabatlarini tahlil etishni hamda bu sohada erishilgan ijobiy natijalarni targ'ib qilishni, kamchiliklarni bartaraf etish yo'llarini izlab topishni talab etadi. Kooperatsiya mohiyati va xususiyatini uning eng muhim, majburiy va nisbiy hisoblangan aloqalar majmui tashkil etadi. Ushbu aloqalarning takomillashuvi kooperatsiya tizimining rivojlanish tendentsiyasida namoyon bo'ladi. Kooperativ faoliyatida

xo'jalik yuritish mexanizmining muhim mohiyati shundan iboratki, unda demokratizm, qat'iyatlik, shaxsiy manfaatga tayanish hamda barqaror xo'jalik yuritish tamoyillariga asoslanib ish yuritish yuqori samara berishi ilmiy va amaliy jihatdan isbotlangan. Kooperatsiyaning mohiyati shundan iboratki, unda o'z oldiga iqtisodiy va ijtimoiy holatini yaxshilashni maqsad qilib qo'ygan bozor sub'ektlarining erkin tadbirkorlik va biznes bilan shug'ullanishida ma'lum sohalarida faoliyatni birlashtirish va qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqaruvchilarni bozordagi turli monopolist tashkilot va tuzilmalar faoliyatidan himoya qilishdir.

Bugun ham qishloq xo'jaligida kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirishga turtki beruvchi va zarurat tug'diruvchi quyidagi muammolar yuzaga kelmoqda: qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda tabiiy, iqtisodiy, moddiyta'minot va boshqa holatlarda xavfxatarlarning yuqoriligi va bu muammolarni dehqonlarning yakka o'zlari ijobiy hal qila olmasliklari; tovar mahsuloti yetishtiruvchilar mahsulotni tayyor holda iste'molchilarga sotilishidan olinadigan yakuniy daromadga tegishli ulushga egalikni ta'minlanmaganligi; qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtiruvchi dehqon xo'jaliklari sonining ko'pligi va aksincha tayyorlanayotgan mahsulot hajmining kichikligi; qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish bozorlariga kichik hajmli mahsulotlarni kiritish yoki resurs bozorlaridan kichik hajmdagi moddiy-texnik vositalarni xarid qilish iqtisodiy jihatdan samarali emasligi; transport xarajatlarining yuqoriligi mahsulotlar raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir etishi; tez buziluvchan mahsulotlarni bozorda iste'molchilar talabiga ko'ra sotish maqsadida ularni saqlash, saralash, qadoqlash va tashish uchun maxsus jihozlangan transport vositalariga ega bo'lish talab etilayotganligi va boshqalar.

Demak, yuqoridagi barcha muammolar yoki ishlab chiqarish bilan bog'liq dolzarb masalalarni alohida faoliyat ko'rsatayotgan qishloq xo'jaligi sub'ektlari doirasida ijobiy hal etishning imkoniyati deyarli cheklanib qolmoqda. Mamlakat iqtisodiyotida raqobat muhitining shakllanayotganligi va monopol holatlar mavjudligi natijasida eng ko'p zarar ko'rayotgan tarmoq ham bu – qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi tarmoq hisoblanadi.

Xulosa. Kooperatsiya munosabatlariga asoslangan kooperativ korxonalar faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida, respublika sharoitida kooperativ korxonalariga quyidagi omillar bo'yicha amaliy yordam ko'rsatilishi talab etiladi: kooperativ asosida tashkil etilayotgan korxonalariga xo'jalik tuzilmalarining ixtiyoriy birlashishi, tegishli hujjatlar va qarorlarni demokratik asoslarda qabul qilish; kooperativga a'zo bo'ladigan fermer xo'jaliklari, korxonalar, tashkilotlar va davlat idoralarining o'zaro manfaatdorligini ta'minlash bo'yicha zarur huquqiy-me'yoriy hujjatlarni qabul qilish; kooperativ tashkilotlarni davlat tomonidan iqtisodiy qo'llab-quvvatlash va boshqalar. Kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirishda mulkchilikning boshqa shakllaridagi tovar mahsuloti ishlab chiqaruvchilariga xizmat ko'rsatish va ta'minot bo'yicha xo'jalik sub'ektlarining rivojlanishiga amaliy yordam ko'rsatish zarur. Xo'jalik yuritishning kooperativ shakllarining samaradorligiga faqat ushbu tuzilmalar bilan raqobat asosida erishish mumkin. SHu bilan birga, kooperativ korxonalar faoliyati davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining qo'llab-quvvatlashlari hamda tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishini talab etadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi

- O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida "gi PF-60-son Farmoni. 1-ilova 30-maqsadi. 28.01.2022. <https://lex.uz/docs/5841063> .
2. R.H.Husanov. Qishloq xo'jaligida kooperatsiyalashning ilmiy-amaliy asoslari va o'ziga xos xususiyatlari. O'zBIITI, ilmiy-amaliy konferentsiya ma'ruzalari to'plami, 14-15 noyabr, 2008 yil. 10-b.
 3. N.S.Xushmatov, SH.Murodov. Qishloq xo'jaligida kooperatsiya tamoyillarini joriy etish imkoniyatlari va asosiy yo'nalishlari. O'zBIITI, ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. 14-15 noyabr, 2008 y. 5-b.
 4. Tugan-Baranovskiy M.I. Sotsialnie osnovi kooperatsii.-M.,1989. 76-100 str.
 5. SHklyar M.F. Kreditnaya kooperatsiya, Ucheb. posobiye. Izdatelsko-torgovaya korporatsiya "Dashkov i Ko". Moskva-2006. 333 str.
 6. T.X.Farmanov Fermer xo'jaliklarni rivojlantirish istiqbollari.-T.: YAngi asr avlodi.2004.-B.144 b
 7. X.S.Xushvaqtov Agropromishlennaya integratsiya i osnovnie napravleniya yego razvitiya // Selskoye xozaytsvo Uzbekistana.-Tashkent, 2000- №3.-S.14-16
 8. R.H.Husanov, Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlar va agrar iqtisodiyot.-T.: YAngi asr avlodi.2004.-B.144.
 9. T.R.Fayzullaeva. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida agrar sohada kooperatsiya munosabatlarini takomillashtirish. Monografiya. – Toshkent TIMI, 2015.-8-15 betlar.
 10. Mintaqa meva-sabzavot kooperatsiyalarini tashkil etishda iqtisodiy mexanizmlardan foydalanish imkoniyatlari. <http://elibrary.ru/item.asp?id=77118596>.

INNOVATIVE
ACADEMY